NUTQ BUZILISHLARINI LOGOPEDIK DIAGNOSTIKA QILISH TEXNOLOGIYALARI

Z.J.Kurbanova[1]

1. Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti "Pedagogika"kafedrasi v. b.dotsenti.

Mas'ul muallif: Kurbanova Zaynab Jurakulovna, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti "Pedagogika"kafedrasi v. b.dotsenti.

e-mail: kurbanovaz533@mail.com.

Received: 26 Oktabr 2026
Accepted: 31 Oktabr 2026
Published: 05 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Kurbanova, Z. J. NUTQ BUZILISHLARINI LOGOPEDIK DIAGNOSTIKA QILISH TEXNOLOGIYALARI / Z. J. Kurbanova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 143–147.

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutq buzilishlarini aniqlash jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy logopedik diagnostika texnologiyalarining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Logopedik diagnostika korreksion-pedagogik jarayonning muhim bosqichi sifatida qaralib, nutq buzilishining turi, darajasi, kelib chiqish sabablari hamda bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini aniqlashdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida kuzatish, suhbat, test, logopedik tekshiruv, instrumental diagnostika va raqamli texnologiyalar imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, logopedik diagnostikani takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari logopedik amaliyotda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash diagnostika aniqligini oshirish, korreksion ishlarni individuallashtirish hamda pedagogik samaradorlikni ta'minlashini ko'rsatdi. Zamonaviy tadqiqotlarda logopedik diagnostika va korreksion texnologiyalarni takomillashtirish maxsus pedagogika yo'nalishining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qayd etilmoqda.

Kalit so'zlar: logopediya, diagnostika, nutq buzilishi, logopedik texnologiyalar, korreksion pedagogika, innovatsion texnologiyalar, skrining, baholash, logopedik tekshiruv, metodik tavsiyalar.

ТЕХНОЛОГИИ ЛОГОПЕДИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ РЕЧЕВЫХ НАРУШЕНИЙ

Аннотация. В данной статье анализируются научные и теоретические основы современных диагностических технологий в логопедии, используемых в процессе выявления речевых расстройств. Логопедическая диагностика рассматривается как важный этап коррекционно-педагогического процесса, и подчеркивается ее важность в определении типа, степени, причин речевых расстройств, а также индивидуальных особенностей развития ребенка. В ходе исследования были проанализированы возможности наблюдения, интервьюирования, тестирования, логопедического обследования, инструментальной диагностики и цифровых технологий. Также были разработаны методические рекомендации по совершенствованию логопедической диагностики. Результаты исследования показали, что использование современных технологий в логопедической практике повышает точность диагностики, индивидуализирует коррекционную работу и обеспечивает педагогическую эффективность. В современной научной работе совершенствование диагностических и коррекционных технологий в логопедии отмечается как одна из приоритетных задач направления специальной педагогики.

Ключевые слова: логопедия, диагностика, речевые расстройства, логопедические технологии, коррекционная педагогика, инновационные технологии, скрининг, оценка, логопедическое обследование, методические рекомендации.

TECHNOLOGIES FOR THE SPEECH THERAPY DIAGNOSIS OF SPEECH DISORDERS

Abstract. This article analyzes the scientific and theoretical foundations of modern speech therapy diagnostic technologies used in the process of identifying speech disorders. Speech therapy diagnostics is considered an important stage of the correctional and pedagogical process, and its importance in determining the type, degree, causes of speech disorders, and the individual development characteristics of the child is highlighted. During the study, the possibilities of observation, interview, testing, speech therapy examination, instrumental diagnostics, and digital technologies were analyzed. Methodological recommendations were also developed to improve speech therapy diagnostics. The results of the study showed that the use of modern technologies in speech therapy practice increases diagnostic accuracy, individualizes correctional work, and ensures pedagogical efficiency. In modern research, the improvement of speech therapy diagnostics and correctional technologies is noted as one of the priority tasks of the direction of special pedagogy.

Keywords: speech therapy, diagnostics, speech disorders, speech therapy technologies, correctional pedagogy, innovative technologies, screening, assessment, speech therapy examination, methodological recommendations.

Ta'lim tizimida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarga sifatli pedagogik yordam ko‘rsatishning muhim shartlaridan biri nutq buzilishlarini erta aniqlash hisoblanadi. Nutq faoliyati bolaning bilish jarayonlari, ijtimoiy moslashuvi, ta'limni o‘zlashtirishi va shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omillardan biridir. Shu sababli logopedik diagnostika korreksion ishlarning boshlang‘ich va eng mas'uliyatli bosqichi sanaladi.So‘nggi yillarda logopediya fanida an'anaviy diagnostik metodlar bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalar, kompyuter dasturlari, multimedia vositalari hamda elektron diagnostik platformalardan foydalanish kengaymoqda. Bunday yondashuvlar logopedga nutq buzilishining tuzilishini chuqurroq tahlil qilish, individual rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda korreksion ishlar samaradorligini baholash imkonini beradi. O‘zbekistonda ham logopedik diagnostika va korreksion ishlarni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi nutq buzilishlarini logopedik diagnostika qilish texnologiyalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda amaliyot uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.Tadqiqot metodlari: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, pedagogik kuzatish, logopedik diagnostika metodlarini umumlashtirish va tavsiyaviy modellashtirish.Nutq buzilishlarini logopedik diagnostika qilishning ilmiy-nazariy asoslari. Logopedik diagnostika — bu bolaning nutqiy rivojlanish darajasini har tomonlama baholash, mavjud nuqsonning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda korreksion ishlar yo‘nalishini belgilashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy jarayondir. Diagnostika faqat nuqsonni aniqlash bilangina cheklanmay, balki bolaning psixik rivojlanishi, eshitish holati, artikulyatsion apparati, fonematik idroki, leksik-grammatik rivojlanishi va bog‘langan nutq darajasini kompleks baholashni ham nazarda tutadi. M.Y. Ayupova, L.R. Mo‘minova, O.E. Gribova va boshqa olimlarning ilmiy ishlanmalarida logopedik diagnostikaning kompleksligi alohida ta'kidlangan. Zamonaviy yondashuvga ko‘ra diagnostika multidissiplinar xarakterga ega bo‘lib, logoped, psixolog, nevrolog, otorinolaringolog va pedagoglarning hamkorligini talab etadi. Shuningdek, so‘nggi ilmiy ishlarda diagnostik kompetensiyalarni rivojlantirish va innovatsion metodlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zarurligi qayd etilgan.

Logopedik diagnostikaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

tizimlilik;
kompleks yondashuv;
individual yondashuv;
rivojlantiruvchi diagnostika;
uzluksizlik;
obyektivlik;
ilmiylik.

Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan diagnostika korreksion ishlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.Nutq buzilishlarini logopedik diagnostika qilishda qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalar.Logopedik diagnostikaning sifati tanlangan diagnostik texnologiyalar va ularni ilmiy asosda qo‘llash darajasiga bevosita bog‘liq. Zamonaviy logopediya an'anaviy kuzatish va suhbat metodlari bilan cheklanib qolmay, balki psixologik-pedagogik, instrumental hamda raqamli texnologiyalarni kompleks qo‘llashni talab qiladi. Bunday yondashuv diagnostika natijalarining ishonchliligi va obyektivligini oshiradi hamda korreksion ishlarni samarali rejalashtirish imkonini yaratadi.Diagnostika jarayonining asosiy maqsadi nutq buzilishining shakli, darajasi, sabablari va bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Shu bois tekshiruv faqat og‘zaki nutqni baholash bilan cheklanmasdan, artikulyatsion apparat, eshitish idroki, fonematik jarayonlar, nafas olish, ovoz hosil qilish, lug‘at boyligi, grammatik tuzilma va bog‘langan nutqni ham qamrab olishi lozim.Kuzatish texnologiyasi:Kuzatish logopedik diagnostikaning eng muhim metodlaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiya orqali bolaning tabiiy sharoitdagi nutqiy faolligi, muloqotga kirishishi, nutqdan foydalanish darajasi, emotsional holati va xulq-atvori o‘rganiladi.Kuzatish quyidagi sharoitlarda amalga oshiriladi:

erkin o‘yin faoliyatida;
mashg‘ulot davomida;
tengdoshlari bilan muloqotda;
ota-onalar bilan suhbat vaqtida;
individual logopedik mashg‘ulotlarda.

Mazkur texnologiyaning afzalligi shundaki, bola sun'iy vaziyatda emas, balki tabiiy muhitda kuzatiladi. Bu esa nutq buzilishining haqiqiy ko‘rinishini aniqlash imkonini beradi.Logopedik suhbat texnologiyasi:Diagnostikaning dastlabki bosqichida bolaning nutqiy rivojlanish tarixini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli logoped ota-onalar bilan batafsil suhbat o'tkazadi.Suhbat davomida quyidagi ma'lumotlar aniqlanadi:

-homiladorlik va tug‘ruq jarayoni;
-bolaning ilk rivojlanish bosqichlari;
-birinchi so‘zlarning paydo bo‘lish vaqti;
- nevrologik kasalliklar;
- eshitish va ko‘rish holati;
- oilaviy nutq muhiti;
- ilgari olib borilgan logopedik mashg‘ulotlar.

Mazkur ma'lumotlar nutq nuqsonining etiologiyasini aniqlashda muhim omil hisoblanadi.Logopedik tekshiruv texnologiyasi kompleks tarzda olib boriladi va quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:Artikulyatsion apparatni tekshirish quyidagicha baholanadi.

til;
lablar;
yumshoq tanglay;
qattiq tanglay;
tishlar;
jag‘ harakati.

Artikulyatsion organlarning anatomik va funksional holati ko‘plab nutq buzilishlarini aniqlash imkonini beradi.Nutq nafasini baholanadi.Tekshiruv davomida quyidagilar aniqlanadi:

nafas olish turi;
nafas davomiyligi;
nafas chiqarish kuchi;
nutq vaqtida nafasni boshqarish.

Nafas buzilishlari ayniqsa dizartriya va duduqlanishda muhim diagnostik belgi hisoblanadi.

Fonematik eshitishni tekshirish:Fonematik idrok nutq rivojlanishining asosiy komponentlaridan biridir.Tekshiruv quyidagi topshiriqlar orqali amalga oshiriladi:

tovushlarni farqlash;
minimal juftliklarni aniqlash;
so‘z boshidagi tovushni topish;
oxirgi tovushni aniqlash;
tovushlarni ketma-ket aytish;
fonemalarni tahlil qilish.

Fonematik idrokning buzilishi dislaliya, disgrafiya va disleksiya rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.Leksik-grammatik rivojlanishni baholash:Diagnostika davomida bolaning lug‘at boyligi va grammatik ko‘nikmalari ham tekshiriladi.Baholash mezonlari:

predmetlarni nomlash;
belgilarni ifodalash;
fe'llardan foydalanish;
sinonim va antonimlarni bilish;
gap tuzish;
grammatik shakllarni qo‘llash;
bog‘langan nutq.

Mazkur tekshiruv nutqning umumiy rivojlanmaganligi (NTR) darajasini aniqlashda muhim hisoblanadi.Instrumental diagnostika texnologiyalari.So‘nggi yillarda logopediyada instrumental diagnostika usullaridan foydalanish keng rivojlanmoqda.Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

audiometriya;
timpanometriya;
elektromiografiya;
videoflyuoroskopiya;
kompyuter nutq tahlili;
akustik ovoz tahlili.

Mazkur texnologiyalar ayniqsa dizartriya, rinolaliya, afaziya va ovoz buzilishlarini tashxislashda yuqori aniqlik beradi.Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Raqamli texnologiyalar logopedik diagnostikada yangi bosqichni boshlab berdi. Kompyuter dasturlari yordamida:

talaffuz yozib olinadi;
akustik tahlil bajariladi;
artikulyatsiya videoga olinadi;
dinamik kuzatuv amalga oshiriladi;
natijalar elektron bazaga kiritiladi.

Bunday dasturlar inson omili ta'sirini kamaytiradi va diagnostika aniqligini oshiradi.Sun'iy intellekt elementlaridan foydalanish.Bugungi kunda ayrim davlatlarda sun'iy intellekt asosidagi logopedik diagnostika tizimlari ishlab chiqilmoqda.Ular:

noto‘g‘ri talaffuzni avtomatik aniqlaydi;
fonematik xatolarni hisoblaydi;
artikulyatsion harakatlarni baholaydi;
individual rivojlanish dinamikasini prognoz qiladi;
logoped uchun avtomatik hisobot tayyorlaydi.

Kelajakda bunday texnologiyalar O‘zbekiston logopedik amaliyotiga ham keng joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Logopedik diagnostika texnologiyalarining qiyosiy tavsifi

Diagnostika texnologiyasi	Afzalligi	Kamchiligi
Kuzatish	Tabiiy nutqni baholaydi	Subyektivlik mavjud

Diagnostika texnologiyasi	Afzalligi	Kamchiligi
Suhbat	Anamnezni aniqlaydi	Ota-onaga bog‘liq
Logopedik tekshiruv	Kompleks baholaydi	Ko‘p vaqt talab qiladi
Test metodlari	Standart baholash	Individual farqlarni to‘liq aks ettirmaydi
Instrumental diagnostika	Yuqori aniqlik	Maxsus jihoz talab etadi
Kompyuter diagnostikasi	Tezkor va obyektiv	Dasturiy ta'minot zarur
Sun'iy intellekt texnologiyalari	Avtomatlashtirilgan tahlil	Hozircha cheklangan qo‘llaniladi

Tahlillar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, biror-bir diagnostika texnologiyasi alohida qo‘llanganda nutq buzilishining barcha jihatlarini to‘liq baholash imkonini bermaydi. Eng yuqori samaradorlik kompleks diagnostik yondashuv orqali ta'minlanadi. Bunda kuzatish, suhbat, logopedik tekshiruv, psixologik baholash va zamonaviy raqamli texnologiyalar o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.Logopedik diagnostikada xalqaro standartlarga mos baholash mezonlarini joriy etish, elektron diagnostik kartalarni yaratish hamda sun'iy intellekt asosidagi dasturlardan foydalanish korreksion-pedagogik yordam sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Nutq buzilishlarini logopedik diagnostika qilish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.Logopedik diagnostika samaradorligi nafaqat qo‘llaniladigan metod va vositalarga, balki diagnostika jarayonining ilmiy asosda tashkil etilishiga ham bog‘liq. Shu sababli logopedik amaliyotda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, diagnostika mezonlarini standartlashtirish hamda mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifalardan hisoblanadi.O‘tkazilgan nazariy tahlillar asosida quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi: 1. Diagnostika jarayonini kompleks tashkil etish.Nutq buzilishlarini baholash faqat tovush talaffuzini tekshirish bilan cheklanmasligi kerak. Diagnostika quyidagi komponentlarni qamrab olishi tavsiya etiladi:

artikulyatsion apparat holatini baholash;
nutq nafasi va ovoz xususiyatlarini tekshirish;
fonematik eshitish va fonematik idrokni aniqlash;
lug‘at boyligi va grammatik tuzilmani baholash;
bog‘langan nutqni tahlil qilish;
yozma nutqni tekshirish (maktab yoshidagi bolalarda);
psixik jarayonlar (diqqat, xotira, tafakkur) holatini aniqlash.

Bunday kompleks yondashuv tashxisning aniqligini oshirib, korreksion ishlarni individual rejalashtirish imkonini beradi.2. Raqamli texnologiyalarni joriy etishLogopedik amaliyotda elektron diagnostik kartalar, multimedia vositalari va maxsus dasturlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ularning afzalliklari quyidagilardan iborat:

natijalarni elektron shaklda saqlash;
rivojlanish dinamikasini kuzatish;
avtomatik tahlil qilish imkoniyati;
diagnostika vaqtini qisqartirish;
xatolik ehtimolini kamaytirish.

Elektron platformalar logoped, psixolog, shifokor va ota-onalar o‘rtasida axborot almashinuvini ham yengillashtiradi.3. Skrining diagnostikasini kengaytirish.Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumta’lim maktablarida muntazam skrining tekshiruvlarini tashkil etish orqali nutq buzilishlarini erta aniqlash mumkin. Erta tashxis qo‘yilishi korreksion yordamning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.4. Mutaxassislar hamkorligini kuchaytirishLogopedik diagnostika multidissiplinar yondashuv asosida tashkil etilishi zarur.Logoped quyidagi mutaxassislar bilan hamkorlik qilishi tavsiya etiladi:

nevrolog;
otorinolaringolog;
psixolog;
defektolog;
pediatr;
pedagog.

Ushbu hamkorlik tashxisning aniqligi va korreksion ishlarning samaradorligini oshiradi. Ota-onalarni diagnostika jarayoniga jalb etish. Ota-onalar bolalarning nutqiy rivojlanishi haqidagi muhim ma’lumotlar manbai hisoblanadi. Shu sababli ular bilan suhbat, anketa va maslahatlar tashkil etish diagnostika sifatini yaxshilaydi hamda korreksion mashg‘ulotlarning uzluksizligini ta’minlaydi.Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, logopedik diagnostikada an’anaviy metodlar hali ham muhim o‘rin tutadi. Biroq zamonaviy raqamli texnologiyalar, kompyuter dasturlari va sun’iy intellekt elementlari diagnostika jarayonini yanada obyektiv va samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Ko‘plab xorijiy tadqiqotlarda kompyuterlashtirilgan diagnostika tizimlari nutq buzilishlarini aniqlash aniqligini oshirishi, ma’lumotlarni tezkor qayta ishlashi va korreksion mashg‘ulotlarni individuallashtirishga yordam berishi qayd etilgan. Shu bilan birga, bu texnologiyalar logopedning kasbiy tajribasi va klinik kuzatuvini to‘liq almashtirmaydi, balki ularni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.O‘zbekiston sharoitida ham logopedik xizmatni raqamlashtirish, standart diagnostik protokollarni ishlab chiqish va elektron ma’lumotlar bazalarini yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Nutq buzilishlarini logopedik diagnostika qilish korreksion-pedagogik yordamning eng muhim

bosqichlaridan biridir. Diagnostika jarayonining sifatli tashkil etilishi nutq nuqsonining turi va darajasini aniq belgilash, individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda korreksion ishlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi.Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

logopedik diagnostika kompleks va tizimli yondashuv asosida tashkil etilishi lozim;

zamonaviy raqamli texnologiyalar diagnostika aniqligi va tezkorligini oshiradi;

instrumental diagnostika usullari tashxisning ishonchliligini ta'minlaydi;

sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar istiqbolda logopedik amaliyotning muhim tarkibiy qismiga aylanishi mumkin;

ota-onalar va turli soha mutaxassislarining hamkorligi diagnostika sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Taklif etilgan metodik tavsiyalar logopedik diagnostika tizimini takomillashtirish, korreksion-pedagogik ishlar sifatini oshirish va alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarga ko'rsatiladigan yordam samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Ayupova M. Logopediya. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
[2] Mo'minova L.R. Logopedik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
[3] Pulatova D.Sh. Maxsus pedagogika. – Toshkent, 2022.
[4] Qurbanova Z.J. Surdopedagogika. – Qarshi: Ilm-fan va ma'naviyat, 2025.
[5] Gribova O.E. Логопедическая диагностика. – Moskva, 2021.
[6] Volкова G.A. Логопедия. – Moskva, 2022.
[7] Лалаева Р.И. Нарушения речи и их диагностика. – Sankt-Peterburg, 2021.
[8] Левина Р.Е. Основы логопедии. – Moskva, 2020.
[9] Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Методы логопедической диагностики. – Moskva, 2022.
[10] Mikolajczak M. Speech and Language Assessment Technologies. – London, 2023.
[11] American Speech-Language-Hearing Association (ASHA). Practice Portal: Assessment of Speech Disorders.
[12] World Health Organization. International Classification of Functioning, Disability and Health (ICF). Geneva.
[13] UNESCO. Inclusive Education Guidelines.
[14] Hallahan D., Kauffman J. Exceptional Learners. Pearson.
[15] Paul R., Norbury C. Language Disorders from Infancy through Adolescence. Pearson.
[16] Owens R. Language Development. Boston.
[17] Bernthal J., Bankson N. Articulation and Phonological Disorders.
[18] Shipley K., McAfee J. Assessment in Speech-Language Pathology.
[19] Justice L., Redle E. Communication Sciences and Disorders.
[20] O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
[21] O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni.
[22] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va maxsus ta'limni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar.